

## NURONIY JAMG ARMASI HAQIDA

Qodirova Mamlakat, Mo‘minovna

Qarshi davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası, tarix fanlari nomzodi, dotsent

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada “Nuroniylar jamg‘armasi” nomining o‘zgartirilgani, bu jamg‘armaning vazifalari haqida ma‘lumotlar keltiriladi. “Nuroniylar jamg‘armasi” amalga oshirilgan ishlar ko‘lami borasida izohlar mavjud. O‘zbekistonda nuroniylarimizni ulug‘lash, ularni asrab-avaylash uchun yaratilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida aytib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy siyosat, rahmdillik, “Nuroniylar fondi”, “Nuroniylar maskani”, ilm-fan, yosh oilalar

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirish, keksalarni ijtimoiy himoya qilish va ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi faolligini oshirish maqsadida bir qancha imkoniyatlar yaratilmoqda. O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ko‘zlagan holda “Nuroniylar jamg‘armasi” tashkil etildi. Muhtaram Prezidentimizning “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar jamg‘armasi” faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4906-sonli farmoni e‘lon qilindi. Eng avvalo, O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar jamg‘armasi” nomi O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi “Nuroniylar jamg‘armasi” etib o‘zgartirildi. Bu jamg‘armaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar bayon qilinadi:

Faxriylarning O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oqsoqollar, keksa yoshdagilar va nogironlarni yoshlarni Vatanga muhabbat, keksa avlod kishilarini hurmat qilish, ezgulik va rahmdillik singari xalqimizning ko‘p asrlik an‘analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish;

Keksalarning hayoti darajasini oshirish, pensiyaga chiqqandan keyin ularning yuqori ijtimoiy faolligini, shu jumladan, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;

Keksalar hayoti darajasini oshirish, ular uchun nazarda tutilgan pensiyalar va imtiyozlar bo‘yicha qonun hujjatlari qoidalari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta‘minlash, ehtiyojmand keksalarni va aholining boshqa qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tibbiy yordam bilan ta‘minlash, ushbu maqsadlarda ishlab chiqarish, tijorat, noshirlik, xayriya tadbirlarini va boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan birgalikda oilalarda tinchlik va xotirjamlikni ta`minlash;

Keksalar uchun ularning yoshini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-madaniy tadbirlar, telemarafonlar, maxsus sport musobaqalari, keksa yozuvchilar, artistlar, xonandalar, rassomlarni va ijodiy ziyolilarning boshqa vakillarini taklif etgan holda ijodiy kechalar tashkil etish;

Shuningdek, yosh oilalar o`rtasida ajralishlar, yoshlarni turli oqimlarga kirib ketishi va huquqbuzarliklarning oldini olish, xorijga ketgan yoshlarni yurtimizga qaytarish va ularni ish bilan ta`minlashda jamoatchilik nazoratini o`rnatish kabi masalalar ham "Nuroniylar" jamg`armasi vazifalari sirasiga kiradi.

Bu hujjat bilan Jamg`armaning markaziy apparati, uning Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar bo`limlari tuzilmalari tasdiqlandi. Bunda Jamg`armaning barcha xodimlari – pensionerlarga pensiyalar Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi mablag`lari hisobidan 100% miqdorda to`lanadi. Har bir tuman va shaharda, qoidaga ko`ra, madaniyat va dam olish istirohat bog`lari hududida o`z ichiga "Nuroniylar maskani" majmualari ochildi va ular boy kitob fondiga ega bo`lgan kitobxonlar zallari, shaxmat, shashka o`ynash uchun dam olish xonalari, keksalar uchun maxsus trenajerlar bilan jihozlangan davolash-jismoniy tarbiya zallari, shuningdek, oshxona va tibbiy xonani o`z ichiga oldi, ular zarur mebel, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan jihozlandi.

O`zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining mehnatkashlarni sog`lomlashtirishga yo`naltiriladigan mablag`larining 30 % gachasini pensionerlarni, birinchi navbatda 1941-1945 –yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini o`z tizimidagi sanatoriylarda sog`lomlashtirishga har yili yo`naltirish, shuningdek, mehnatkashlarga ularga ajratilgan yo`llanmalarini o`zlarining ota-onalarini sog`lomlashtirishga yuborish huquqini berish to`g`risida tashabbuslar qabul qilinib, amalga oshirildi. Iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ilm – fan, madaniyat, ta`lim, sog`liqni saqlash, yurisprudensiya va boshqa sohalardagi uzoq yillik halol mehnatlari uchun mehnatkashlarga, shuningdek ishlaydigan jamiyatda mustahkam oilani saqlab qolgan, farzandlarini kattalarga va kichik avlodga hurmat, jamiyat oldidagi mas`uliyat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab hurmat qozongan onalarga "Mehnat faxriysi" ko`krak nishoni (1, 2, 3 –darajali) bilan mukofotlandi.

"Nuroniylar" jamg`armasi O`zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda har bir tumanda "Mehnat faxriysi" nishoni bilan taqdirlangan shaxslar to`g`risidagi qisqacha biografik ma`lumotnomalar aks ettiriladigan "Bizning faxriylarimiz" kitob-fotoalbomi yaratildi. O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Mahalla" telekanalida har oyda "Otalarni so`zi-aqlning ko`zi" teleko`rsatuvi namoyish qilindi. "Nuroniylar" jamg`armasining nashriyot faoliyatini tashkil etishga ko`maklashildi. "Keksalik gashti" jurnali imtiyozli asosda nashr etildi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida har bir mahallada nuroniylar, faxriylar o'rnini mustahkamlandi. Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, "Bir nuroniy - o'n yoshga mas'ul" degan tamoyil asosida mahallalardagi faol nuroniylarning hayotiy tajribalaridan samarali foydalanish maqsadida har bir muammoli yoshlarning muammolarini hal qilish maqsadida nuroniylarga birlashtirish lozimligi to'g'risida ijobiy natijalarga erishildi. Faol mehnat qilib, yoshlar muammolarini hal qilishda ijobiy natijalarga erishgan nuroniylarni rag'batlantirish maqsadida turistik sayohatlarga, O'zbekistondagi tarixiy obidalariga, ziyoratgohlarga borishlarida, sanatoriyalarda bepul davolanishlar tashkil etildi.

Jamg'armani qo'llab-quvvatlash va uning faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolarning keksa avlod oldidagi fuqarolik burchi hisoblanadi.

"Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir", - deysi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 29-dekabr Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida. 2021-yildan boshlab, "Nuroniy" jamg'armasi tomonidan keksalarga doimiy yordam ko'rsatilishi uchun uning moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaytirildi, ushbu jamg'armaga byudjetdan 100 milliard so'm mablag' ajratildi. O'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, ularning hayotini mazmunli tashkil etish uchun to'lovlar miqdori oshirildi hamda ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lami kengaytirildi.

Xulosa qilib aytganda, yurt ravnaqi, kelajak taraqqiyoti keksalarimizga, faxriy nuroniylarimizga ergashgan holda yuksaladi. Nuroniyning maslahatlari, to'g'ri yo'l - yo'riqlari yoshlar uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi. Bunda "Nuroniy" jamg'armasining o'rnini jamiyatimizda muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Sh.Mirziyoyev farmoni. 29.12.2016.
2. A.Boltaboyev. Pir-u badavlatlar ulug'langan yurt. Maqola. 2021-yil 8-noyabr.
3. Internet saytlari.
4. Хонбобоев, ХАКИМЖОН ОКТАМОВИЧ, Мубина ХАКИМЖОНОВНА Икромова, and Мухаммад-Анасхон ХАКИМЖОНОВИЧ Икромов. "Ta'limda axborot texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari." Молодой ученый 3-1 (2016): 21-22.
5. MUBINAKHON, IKRAMOVA, and IKRAMOV MUHAMMAD ANASKHON. "The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education." JournalNX 7.1: 106-108.

6. Makhmudovich, Gulyamov Komiljon, and Ikromov Muhammad Anaxxon Hakimjon o'g. "DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF TEACHING UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ARTS." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.5 (2022): 957-963.
7. Ikromov, Muhammadanaxon Xakimjon Ogli, and Zulhayoxon Muhtorjon Qizi. "MARKAZIY OSIYODA GRAFIKANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK OLIMLAR." Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2.5 (2022): 627-630.
8. Gulyamov, K. M., and M. H. Ikramov. "Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics." JournalNX 7.06 (2021): 95-99.
9. Xakimjon og, Ikromov Muhammad Anaxxon. "BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." Conferencea (2023): 34-38.
10. Ikromov, M. X., and A. X. Abdullaev. "METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE PROCESS OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
11. Гулямов, Комилжон Махмудович. "БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КОМПЬЮТЕРДА ГРАФИК МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ МОДЕЛИ." УЧИТЕЛ Ў 3.4 (2022).